Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida Xalqaro Migratsiya tashkilotining Mintaqaviy tematik himoya bo‘yicha katta mutaxassisi Hezer Komenda boshchilikdagi delegatsiyaning tashrifi to‘grisida

MA’LUMOT

2024 yil 31 yanvar kuni Xalqaro Migratsiya tashkilotining Xalqaro Migratsiya tashkilotining Mintaqaviy tematik himoya bo‘yicha katta mutaxassisi Hezer Komenda Xalqaro Migratsiya Tashkilotining O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi stajyori Chjenxua Malar Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar.

Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining hozirgi holati, talabalar va tinglovchilar uchun uchun yaratilgan sharoitlar va kelajakdagi imkoniyatlari bilan tanishishdan boshladilar.

Tashrif davomida xorijiy mehmonlar Yevropa Ittifoqi va BMTRDning qo‘shma loyihasi doirasida tahsil olgan tinglovchilar bilan suhbatlashdi.

Markaz rahbariyati bilan bo‘lgan muloqot davomida delegatsiya azolari markaz bilan Xalqaro Migratsiya Tashkiloti o’rtasida olib borayotgan ishlar yuzasidan ijobiy fikirlarni bildirdilar. Markaz rahbari O.Ro‘ziyev fikr bildirib 2022 yil 28-noyabrdan 3-dekabrgacha Afgoniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markazida Xalqaro migratsiya tashkilotining “Termizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish” dasturi loyihasi doirasida 16 nafar xotin-qizlar (shundan 7 nafari afg’on, 9 nafar o’zbek)fuqarolari uchun tadbirkorlik yo’nalishida bir haftalik seminar trening tashkil etilgan edi. Seminar-trening Ishtirokchilarning har biriga Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan qiymati 22 700 000 so‘mlik VAUChER lar hamda planshetlar berilganligini va Markazni bakalavr ta’lim yo‘nalishini bitirgan 11 nafar bitiruvchisi qizlarni Toshkent Nordik xalqaro universitetining magistratura bosqichida o‘qishni davom ettirishlari uchun shartnoma to‘lovlarni XMT tomonidan to‘lab berilganligi uchun o‘z minatdorchiligini bildirdi.

Shundan so‘ng Hezer Komenda xonim O’zbekistonga tashrifi maqsad XMTlar bilan olib borayotgan ishlar hamda migratlar yordam qilish hamda afg‘onistolik migrantlarga yordam qilishni ekanligini takidladi. Hezer Komenda tomonidan markaz bazasida O’zbekistonda vaqtincha istiqomat qilayotgan afg‘on fuqarolarini Moliya,Turizm yo‘nalishida qisqa muddatli kurslar o‘qitish takliflarni berdi.

Shundan so‘ng, Markaz rahbariyati bildirilgan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga bildirishini takidladi va xorijiy mehmonlarga quyidagi takliflarni berdi:

-Markaz bazasida XMTning kabinetini tashkillashtirish hamda jihozlash;
- Kurslarni bitiradigan tinglovchilarga yo’nalishi bo‘yicha jihoz olib berish
-Talabalar uchun “Fitnes klubi”ni ochish;

Hezer Komenda markazni rivojlantirish bo’yicha yuqorida bildirilgan takliflarni Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkiloti (lOM)ning rahbariyatiga yetkazishini ta`kidlab o`tdi.

Xalqaro aloqalar bo‘lim boshlig‘i N.Xo‘jamurodov















